

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH

MAZMUNI

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi.

Eshpo‘latova Gulasal Nurpo‘lot qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14734556>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati, usullari va metodlari tahlil qilingan. Bolalarga tabiatni tushunish va unga g‘amxo‘r munosabatda bo‘lishga o‘rgatish jarayonida, o‘qituvchi va tarbiyachilarning roli juda katta. Tabiat bilan tanishtirish faqatgina tabiat hodisalarini bilib olishni emas, balki bolalarga uni saqlash va himoya qilishni ham o‘rgatadi. Ushbu maqolada pedagogik usullar va metodikalar hamda bolalarga tabiatni o‘rgatishning samarali yondashuvlari taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, tabiat, ekologiya, ekologik ong, metodlar, didaktik o‘yin, tabiat hodisalari.

Tabiat, uning go‘zalligi, xilma-xilligi va muhofazasi maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda yosh avlodni tabiat bilan tanishtirish, ularga atrof-muhitning ahamiyatini tushuntirish, tabiatni asrash zarurligini o‘rgatish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatni o‘rganish orqali nafaqat bilimga ega bo‘ladilar, balki estetik his-tuyg‘ulari ham rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish - bu bolalarning tabiatni, uning turli hodisalarini, o‘simliklar va hayvonlar dunyosini o‘rganish orqali ularni atrof-muhitga mehr atrof olam haqidagi tushunchalarini shakllantirish jarayonidir. Tabiat bilan tanishtirish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘quv dasturlarining ajralmas qismi bo‘lib, bu nafaqat bilim, balki hissiy va estetik rivojlanishiga ijobiy ta’sir etuvchi jarayondir.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy maqsadi bolalarda tabiatga nisbatan hamdardlik va ehtiyotkorlik hissini rivojlantirishdir. Tabiatni o‘rganish bolalarning hissiy va intellektual rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda bolalar o‘simliklar, hayvonlar, havo, suv va yer kabi asosiy tabiiy elementlar haqida bilib olibgina qolmasdan tabiatdagi barcha tabiiy hodisalar, fasllar almashinuvi haqidagi tushunchalarga ham ega bo‘ladilar.

Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar o'yin tarzida olib boriladi.

Shu bilan birgalikda turli xil metodlardan ham foydalaniladiki bu metodlar bolalarda tushunchalarning to'la va aniq shakllanishiga olib keladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda, hamda mehnatda amalga oshiriladi[1,B.38]

Tabiat bilan tanishtirishda qo'llaniladigan metodlar bolalarga tabiatni o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Tajriba va kuzatuvlar, interfaol o'yinlar, didaktik materiallar, sayohatlar va tabiiy hodisalar haqida hikoyalar, tarbiyachining bolalar bilan olib boradigan tabiat haqidagi suhbatlari kabilar orqali o'rgatish samarali hisoblanadi. Masalan kuzatish metodini qo'llaydigan bo'lsak, tabiat bilan tanishtirishda bolalar bilan birgalikda uzoq va qisqa muddatli kuzatishlarni amalga oshirish mumkin. Bu bolalarda kuzatuvchanlik, sinchkovlik, tadqiqotchilik kabi sifatlarining rivojlanishiga olib keladi. Bolalar bilan uzoq muddatli kuzatuvlarni tashkil qilish orqali o'simliklarning daraxtlarning o'sish jarayonlarini kuzatish mumkin. Qisqa muddatli kuzatuvda yomg'ir shamol, bulutlarni kuzatish orqali tabiat va tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini boyitish mumkin. Bu metodlar bolalarning qiziqishlarini uyg'otadi va ularda tabiiy dunyo haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi. Bundan tashqari har bir o'tilgan mavzuni mustahkamlashda turli xil didaktik o'yilar: Yerdami daraxtda, kuzdami qishdami, mevam sabzavotmi, kabi so'z o'yinlaridan ham foydalanib bolalarning tabiat haqidagi tushunchalarini mustahkamlash bilan birga ularning nutqi va tafakkurini oshiradi[2, B,62-67]. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati juda katta. Didaktik o'yinlar nafaqat bolalarga bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi, balki ularda tabiatga bo'lgan qiziqish va sevgi tuyg'ularini ham rivojlantiradi. Bu o'yinlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, tushunish va muloqot qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, va bir vaqtning o'zida ular uchun o'rgatish jarayonini qiziqarli va jonli qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiat bilan tanishtirishda didaktik o'yinlarning ba'zi afzalliklari:

Tajriba va kuzatish: O'yinlar yordamida bolalar tabiatning turli hodisalarini o'rganib, tajriba qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Misol uchun, o'simliklar yoki hayvonlar haqida o'yinlar yordamida o'zaro bog'lanish va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Kreativlik va tasavvur: Tabiatni o'rganish bolalarda tasavvur qilish, yangicha fikrlash va kreativlikni rivojlantiradi. Didaktik o'yinlar orqali ular o'zlarining fikrlash qobiliyatlarini yanada oshiradi.

Muloqot va jamoada ishlash: Bolalar o'yinlar orqali birgalikda ishlashni, guruhda muloqot qilishni va o'zaro yordam berishni o'rganadilar. Bu ularning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

E'tibor va xotira rivojlanishi: Didaktik o'yinlar bolalar uchun tabiatdagi xususiyatlar yoki hodisalar haqida ma'lumotlarni yodda saqlashda yordam beradi. Bu xotira rivojlantiradi, diqqatni jamlashga o'rgatadi.

Qiziqish va tabiatni sevishga o'rgatish: Tabiatni o'rganish jarayonida o'yinlar bolalarda tabiatga bo'lgan mehr va qiziqishni shakllantiradi, bu esa ularning kelajakda ekologik ongini rivojlantiradi[3,B,24].

Didaktik o'yinlar, shu tarzda, bolalar uchun tabiatni o'rganish jarayonini nafaqat qiziqarli, balki samarali qiladi. Ular bolalarga tabiat haqidagi bilimlarni qulay va interaktiv tarzda o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish bilan birgalikda tabiatni saqlash va himoya qilishni o'rgatish ham katta ahamiyatga ega. Bolalarga tabiatni saqlash, ekologik muammolarni tushunish va ularga javobgarlikni his qilishni o'rgatish muhimdir. Bu nafaqat ularga tabiatga zarar yetkazmaslikni, balki uni himoya qilish va asrashning ahamiyatini o'rgatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ekologik tarbiyalash atrof-muhitga, jonli va jonsiz tabiat obyektlariga malakali, ehtiyotkor munosabatda bo'lishga yordam beradi. Tabiiy jarayonlarga e'tibor, atrof-muhit qonunlarini tushunish maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatini shakllantirishning asosi bo'lib, uning atrofdagi dunyoga mas'uliyatli munosabatda bo'lish muhimligini tushunadigan to'laqonli fuqaro sifatida o'sishiga imkon beradi. Vatanga muhabbat, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash uchun g'amxo'rlik zamonaviy jamiyatning fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishning asosi bo'lib, uning vazifasi sayyoramizning hayvonot dunyosi holatini normallashtirish va ekologik halokatning oldini olishdir[4,B,429]. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limning maqsad va vazifalari yosh bolalarning o'ziga xos xususiyati ularning tashqi dunyo bilan organik o'zaro ta'siridir. Bolalar tabiat bilan o'zlarining umumiylikni his qiladilar, unga iste'molchi munosabatidan mahrum bo'lib, tabiat hodisalarining mohiyatiga qiziqish bildiradilar. Ekologik ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat: o'simlik va hayvonot dunyosiga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish; ona tabiatiga muhabbatni rivojlantirish; go'zallikni tushunish, his qilish va empatiya qilish qobiliyati; tabiat hodisalarining mohiyatini tushunishni shakllantirish; bolalarda ekologik ongni shakllantirish kabilarni o'z ichiga oladi[5,b,124].

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish nafaqat bilim, balki shaxsiy rivojlanish va ekologik ongni shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Tabiat bilan tanishtirish orqali bolalar nafaqat tabiatni o'rganadilar, balki unga mehr va hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Tabiatni o'rgatishda samimiy va hissiy yondashuvlar, metodologik asoslarning to'g'ri tanlanishi bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Rajabova I.H. Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari: O'quv qo'llanma. Toshkent. 2021. B-38.
2. D.Yo.Yormatova, X.S.Xushvaqtova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – T.: «Fan va texnologiya», 2018.B-62-67.
3. Z. T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asranboyeva. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi .Darslik.Toshkent 2017. B-24.
4. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT OQISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 52-62.
5. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 361-367.
6. Yulduz, S. (2024). SYUJETLI-ROLLI OYINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 44-51.
7. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 21(3), 124-129.
8. Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(3), 93-99.
9. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 219-220.
10. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 23(2), 87-92.

11. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O 'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 158-160.
12. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(5), 108-114.
13. Sobirovna, S. Y. (2024). AESTHETIC EDUCATION AS A TOOL TO LEAD CHILDREN TO PERFECTION. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 354-367.
14. Yulduz, S. (2024). Estetik tarbiya bolalarni komillikka yetaklovchi vosita sifatida. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(2), 95-106.
15. Sobirovna, S. Y. (2023). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(4), 160-166.
16. Sobirovna, S. Y. (2024). BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OILAVIY VA IJTIMOIIY OMILLAR. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 199-204.
17. Sobirovna, S. Y. (2024). BOLALARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 253-258.
18. Sobirovna, S. Y. (2024). BOLALAR RIVOJLANISH NAZARIYASIDA PIAJENING KOGNITIV RIVOJLANISH MODELI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 193-198.
19. Sobirovna, S. Y. (2024). BOLALAR RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 259-264.
20. Sobirovna, S. Y. (2024). MILLAT ERKI VA RUHI KUYCHISI. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(1), 130-132.
21. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 512-520.
22. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 512-520.
23. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 512-520.

24. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
25. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
26. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
27. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
28. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
29. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
30. Тошполатова, И. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
31. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
32. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
33. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
34. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
35. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).